

## **Ta’lim tizimidagi nizolar**

**Guliston davlat pedagogika instituti  
Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabasi  
Erqulova Durdona Dilshod qizi**

**Annotasiya:** Ushbu maqolamning mazmuni ta’lim tizimidagi muammolar va ushbu muammolarni hal qilish haqida.

**Kalit so‘zlar:** Muammo, ta’lim, maktab, pedagog, o‘quvchi, nizo, yechim, texnologiya, zamonaviy, bilim.

### **Kirish**

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida zamonaviy bilim va yangicha yondashuvlarga ehtiyoj mavjud. Shu bois, ta’lim sifatini oshirishda o‘quv jarayonini davr talablariga mos holda tashkil etish, davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlarini takomillashtirish, yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish, zamonaviy innovation pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, mavjud muammolarni bartaraf qilish ertangi istiqboldagi yutuqlarimiz kafolatidir. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni 2020 yil 23 sentyabrь kuni qabul qilingan bo‘lib, uning maqsadi ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Mazkur Qonunga asosan ta’lim sohasidagi asosiy printsiplar, ta’lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo‘yildi, unda belgilangan masofaviy ta’lim haqidagi qoidalar o‘quv rejalarini va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ma’lum qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish

# **“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”**

**Issue 2. February 2024**

Kontseptsiyasi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

## **Adabiyotlar tahlili va Metodologiyasi**

Mavliyanov Adminjon o‘zining “ Islohotlar, yechimlar, muammolar ” nomli maqolasida keltirgan: Bugungi kunda respublikamizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘qitishning innovatsion texnologiyalarini joriy etish, mustaqillik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik kabi kasbiy sifatlarga ega yoshlarni tayyorlash hamda pedagoglarni rag‘batlantirish maqsadida katta ahamiyatga ega, sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin, tahlil va o‘rganish natijalari hozirgacha ta’lim tizimimizda saqlanib kelayotgan muammolar borligini ko‘rsatmoqda. Jumladan:

- ta’lim muassasalarida malakali pedagoglarning yetishmasligi, ularni tayyorlashda amaliyatga joriy etilgan o‘quv reja va dasturlarining yaratilishida sohadagi islohotlar to‘liq inobatga olinmasligi hamda ular mazmunan eskirganligi;
- ta’lim oluvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlashda hamda iqtidorli yoshlarning kreativ g‘oyalarni amaliyatga tatbiq etilishida tizimli va innovasioln faoliyat to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi;
- pedagoglar tomonidan ta’lim oluvchilarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etilmaganligi;
- pedagoglar tomonidan innovasion pedagogik texnologiya va metodlarini amaliyatga keng joriy etimasligi;
- o‘quv mashg‘ulotida ta’lim oluvchilarga bahslashish, o‘zining fikrini bayon etishga imkon juda kam berilishi; ayrim mashg‘ulotlard pedagoglar eski ma’lumotlarni takrorlash bilan cheklanib qolayotganligi, ularning talab darajasida tayyorgarlik ko‘rmaganligi, bilim va kasb saviyasining pastligi jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda, kompetentliklari esa yetarli darajada emasligi sezilmoqda.

Baxtiyor Kadirov o‘zining “ Zamonaviy ta’limdagi muammolar ” nomli maqolasida keltirgan: Biz hammamiz zamonaviy bolaning xususiyatlari haqida gapirganda, o‘qituvchilarningham xususiyatlari haqida gapirib o‘tish joiz. Zamonaviy o‘qituvchi qanday bo‘lishi kerak? Nazarimda ideal va haqiqiy ustoz haqida talabalarning fikrini bilish qiziq tuyuladi. Bitiruvchilar ideal o‘qituvchining fazilatlari orasida birinchi o‘rinda adolatni, haqiqiy talab sifatida esa talabchanlikni qo‘yadilar. Maktab hayotining ko‘plab muammolari kerakli va dolzarblik o‘rtasidagi farqda aks etadi. Bevosita oqibat - bu talabalarning o‘qituvchilardan, o‘z navbatida, o‘qituvchilarni talabalardan chetlashtirishi. Maktabdagi bolalar nafaqat bilimlarni

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

o‘rganadilar, balki hayot qonunlaridan chuqur ko‘nikma hosil qiladilar, tuyulishi mumkinki, o‘qituvchilar ularni maxsus o‘rgatishmaydi. Shunday qilib, o‘g‘il va qiz bolalar juda yaxshi “o‘rganadilar”, ularning baholashi bilimga qaraganda ko‘proq o‘qituvchining munosabatiga bog‘liq. Shunday qilib, so‘rovda qatnashgan bitiruvchilarning 32,4 foizi baho o‘qituvchining o‘quvchiga bo‘lgan munosabatini sezilarli darajada belgilaydi deb hisoblaydi. Bolalar konformizm fanini mukammal egallaydilar – “agar siz muammolarga duch kelishni istamasangiz, “xo‘jayin-o‘qituvchilar ” ga itoat eting.

## Muhokama

Hozirgi kunda ta’lim tizimida turli xil muammolar mavjud: birinchidan, fan dasturining kirish qismida o‘qitiladigan fanning dolzarbliji va ahamiyati, uning maqsad va vazifalari, uning keljakda nima kerakligini ochib berishga alohida e’tiborni qaratish lozim. Buni fanga tegishli hayotiy misollar, fan va texnologiyalar, ishlab chiqarish sohalarida erishilayotgan yutuqlarni inobatga olib yoritib berilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu albatta ta’lim oluvchilarda fanga bo‘lgan boshlang‘ich motivatsiyani uyg‘otishga, keljakka bo‘lgan ishonch kurtaklarining yuzaga kelishiga yordam beradi;

- ikkinchidan, bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda katta o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Respublikamizga xorijdan ko‘plab yangi texnika va texnologiyalar, investisiyalar kirib kelmoqda, qolaversa o‘zimizda ham ishlab chiqarilmoqda, yangiyangi korxona hamda ishlab chiqarish tashkilotlari barpo etilmoqda. Albatta ertaga ularda mustaqil ishlay oladigan, ularni boshqara oladigan mutaxassis zarur. Shuning uchun bugungi kunda biz keljak uchun tayyorlayapgan mutaxassislarimizga ular tomonidan qo‘yilayotgan zamonaviy malaka talablarini aniq, to‘g‘ri, pala-partish qilmasdan, “bizdan ketdi - egasiga yetdi” tarzida ish qilmasdan o‘rganib, kerak bo‘lsa ushbu korxona va tashkilotlarga borib, ko‘z bilan ko‘rib, ularning yetakchi, tajribali mutaxassislari bilan hamkorlikda shakllantirish lozim. So‘ngra ushbu tayyor malaka talablari o‘quv dasturida o‘z aksini topishi lozim;
- uchinchidan, amaldagi o‘quv dasturlarida soatlari taqsimotini jadval shaklida berish. O‘quv rejadagi fan mavzusi soatlari taqsimoti o‘quv dasturida o‘z aksini topishi maqsadga muvofiq. Chunki, pedagog dasturni ochganda soatlarni izlab yurmaydi, o‘quv rejasiga murojaat qilmaydi. Bu ishni osonlashtiradi va vaqtni tejaydi;
- to‘rtinchidan, o‘quv dasturida fanni o‘qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish deb: aqliy hujum, bumerang, sinkveyn, konseptual jadval kabi interfaol usullar yozilganini kuzatamiz. Axir ular pedagogik texnologiyalar

# **“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”**

**Issue 2. February 2024**

emas-ku, ular pedagogik texnologiyalar asosida yaratilgan interfaol usullardir. Axborot texnologiyalari bo'yicha esa biron bir texnologiya nomi yozilmagan. Demak, bu noto'g'ri yondashuv va talqin etilgan.

## **Natija**

Ta'lif tizimidagi muammolarni hal etish uchun asosan pedagogning o'zi yuksak bilim salohiyatga ega bo'lishi kerak. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganida: " Zamonaviy yetuk kadrga ega bo'lish uchun avvalo zamonaviy yetuk pedagog chiqarishimiz lozim" — degan fikrlari bejiz emas. Kadrlar tayyorlash milliy tizimining globallashuv jarayonida bozor talablariga to'liq javob bermasligi, ta'lif tizimida o'quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi takomiliga yetkazilmaganligi, yuksak malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, hozirgi zamon talablariga mos o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar kamligi, fan, ta'lif va ishlab chiqarish o'rtasida o'zaro aloqaning zaifligi tizimdagi kamchiliklardan hisoblanadi. Pedagog dars o'tishi jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalana olishi kerak. Bugungi kunda o'quv muassasalarini bitirib chiqayotgan o'quvchi va talabalarda mustaqil fikrlash layoqati to'la rivojlangan, deb bo'lmaydi. Ularda ilm-fan yutuqlariga, amaliyotga tayangan yechimlar qabul qilish uchun malaka va bilim yetarli emas. Shu bois maktab, kollej va akademik litseylarni bitirgan yoshlarimizning ko'pchiligi mustaqil hayotda o'z o'rnnini topa olmayapti. Sir emas, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining taxminan 10 foizigina oliy o'quv yurtlariga birinchi yili o'qishga kirmoqda, xolos.

## **Xulosa**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi kunda ta'lif tizimida juda ko'plab muammolar mavjud, bularga alohida e'tibor berish lozim. Chunki " Kelajak yoshlar qo'lida" deyilganidek: yoshlarni hozirdan boshlab tayyorlash yukasak bilim salohiyatga ega qilish kerak.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni..
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldag'i "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son Qarori. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujatlari to'plami, 2017 y.)


**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Issue 2. February 2024**

3.Qulieva Sh.H. Talim tizimi va tizimli yondashuv tushunchalari // Kasb-hunar ta'limi. – Toshkent, 2006.

4.Muslimov N.A. Qulieva Sh.H. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida tizimli yondashuvni amalga oshirishga muammoli vaziyatlar. – T.: Fan va texnologiyalar, 2007.

5..Q.Tolipov., M.Usmonboeva . Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.



**Research Science and  
Innovation House**